

MILLIY MUSIQAMIZDA USULLAR

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi

Ramazonova O'g'iloy Xolmurodovna

oramazonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Milliy musiqamizdagi o'zining beqiyos o'rni ega bo'lgan Shashmaqom juda ham yirik musiqiy durdona hisoblanadi. Ushbu maqolada shashmaqomning asho'la bo'limining doira usullari xususida so'z boradi.

АННОТАЦИЯ

Шашмаком, занимающий ни с чем не сравнимое место в нашей национальной музыке, считается великим музыкальным шедевром. В данной статье рассказывается о круговых методах ашолы отделения шашмакома.

ANNOTATION

Shashmakom, which occupies an incomparable place in our national music, is considered a great musical masterpiece. This article describes Ashola's circular methods of separating shashmakom.

Kalit so'zlar: Maqom, mug'om, dastgoh, navba, raga.

Azaldan dunyo kurrasida ikki qarama qarshi madaniyatlar to'qnashuvi, ya'ni Ustoz Abdurauf Fitrat mubolag'asi bilan aytganda "G'arb" va "Sharq"¹ madaniyatlari bir-biridan hamisha yirik tafovutlar bilan ajralib kelgan. "G'arb" madaniyati qatlamidagimusiqa san'ati asosan ko'p ovozlik, yirik cho'zimlilik va asosan vokal musiqa poydevoriga qurilgan bo'lsa, Sharq musiqa ijodi asosan mono musiqa, kuychanlik va cholg'u musiqasi poydevori ustiga qurilgan.

Sharq musiqasi ta'sirida shakllangan milliy musiqa madaiyatimiz ilk o'choqlari ham ancha yillar qarida yotgan tarixga borib taqaladi. Xususan Markaziy Osiyodagi ilk sivilizatsiya markazlari, ilk manzilgohlardan topilgan manbaalar fikrimizni isboti sifatida beriladi.

Tuproqqal'adagi kichik xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati bizgacha etib kelgan. Bundan ma'lum bo'ladiki musiqiy cholg'ular orasida arfa cholg'usi Markaziy Osiyoda ham ma'lum va mashhur bo'lib, uni asosan ayollar ijro etgan, va bu jihati Xorazmda nafaqat erkak sozandalar balki ayollarning ham soz chalishida o'z o'rni va mavqega ega bo'lganidan dalolat beradi. Hususan, Qo'y qirilgan qal'a va Tuproqqal'alarning ikkinchi qavatidagi xonalarda sozanda va xonandalar rasmlari mavjud. Ular qatorida uchburchak shaklidagi katta chang chalayotgan ayolning sarg'ish tusda ishlangan nafis rasmi butunligicha saqlanib qolgani bor.

Musiqa san'atini ijrochilik amaliyotiga doir qadimgi ma'lumotlarni biz Tuproqqal'adagi kichik xonalardan birining devorida arfa chaluvchi qiz surati muhrlangani misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki arfa cholg'usi Sharqda o'lkasida ma'lum va mashhur bo'lib, asosan ayollar ijro qilishi ko'zga tashlanadi. Musiqachi ayol qo'lga bilak uzuk taqqan, yuzlari dumaloq, sochlari jingalak, o'zi chalayotgan kuyning sehriga tushib qolgandek go'yo.

Undan tashqari "Ayri tom" peshtoqlaridan raslarda qo'lida ikki kosali torli cholg'u (katta ehtimol bilan hozirgi "tor" cholg'usi kabi), arfa, zarbli cholg', damli cholg'u larning tasvirlari

o'tmish tarixda musiqa madaniyatimizning yuksak darajada bo'lganligining yaqqol isboti sifatida aytsa bo'ladi.

Sharq xalqlari yuqorida aytganimizdek cholg'u musiqasi ustiga qurilgan, bo'lib ularni yaxlitlash turkumlashtirish, yirik shakllarni yaratishiga asos zamin bo'ldi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Mana shu jarayonda sharq xalqlariga oid bo'lgan "ustoz-shogird" an'analari shakllandi.

Xalqimizda: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", - degan naql bor. Har kasbning o'z ustalari bo'lgani kabi ustozlikkasbini avloddan avlodga yetkazuvchi izdoshlar, o'rinbosarlar, qisqa qilib aytganda, shogirdlarning ham bo'lishi tabiiy. O'z kasbining ustasi bo'lgan ustozlar o'zlarining bebaho hunarlarini o'zi bilan olib keta olmasligi barobarida o'sha hunarni shogirdlariga o'rgatadi. O'z navbatida, shogirdlar ham ustozdan o'rgangan hunarni rivojlantirib, o'z imkoniyati darajasida keyingi avlod shogirdlarini yetishtirib chiqaradi. Ustoz-shogirdlik bizning milliy an'alarimizga xosdir. San'at, xususan, qo'shiqchilikdagi mazkur an'ana borasida katta tajribaga egamiz.

Tarixda musiqa madaniyatimizning rivojiga xissa qo'shgan bir qancha ijodkorlar mavjud. Ular orasida Borbad Marvaziy ismi alohida o'ringa ega. Xususan uning ijodidagi bir nechta tamoyillar kelajak musiqasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Uning ijodidagi o'ziga xoslik alohida baholangan. Xususan barbadiya an'alaridan eng asosiysi, "umumsharqiy" hududlarda tan olingan ijodiy erkinlikdir². Agar buyuk bastakor faqat bir milliy yo'nalishdagina ish tutib asarlar yaratganida, tabiiyki, ma'lum qobiq doirasidan nariga o'ta olmagan bulur edi. Shu bois, uning ijodiy merosi muayyan misollarda bizgacha yetib kelmaganligiga qaramay, qator mnbalarda bitilgan nomlarida ham mazkur erkinlik alomatlarini, haqiqatan ham juda ko'p Sharq xalqlari musiqasiga xos unsurlarni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyaqubov O., Maqomot. T., "Musiq", 2004
2. Ражабий И. Мақомлар масаласига доир. Т., Ўздавр нашр, 1963,
3. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентский макомы. Ташкент, 2006 г. 176 с.,
4. Ражабов И. Мақомлар. Т., "Санъат" 2006 йил. 342 б.
5. Mulla Bekjon Rahmon o'gli va Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. M., 1998
6. Ражабий И. Мақом asoslari. Т., Ўз давр нашр, 1963
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. Abdullayev R. O'zbek maqomi. T., 2018
9. D.Namozova, D.Nosirov "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim metodikasi" Qo'qon: 2016 y. B. 178
10. R.Qodirov "Musiq pedagogikasi" Toshkent: 2013 y. B. 162
11. Sh.Shodmonova "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent: 2008 y. B. 142
12. R.G'.Qodirov "Musiq psixologiyasi" Toshkent 2005 y. B. 92
13. S.I.Musabekov "Musiq tarbiyasi" Toshkent 1973 y. B. 144
14. D.Islomov "Sharq musiqasi tarixidan" Toshkent 2017 y. B. 158
15. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

16. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
17. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.
18. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
19. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
20. Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку. УХ Рамазонова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023
21. Внедрение и применение инновационных технологий в образовании студентов. УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023
22. Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема. УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023

